Xalimbetov Farxad Bagibekovich	



TIJORAT BANKLARINING BIZNES EKOTIZIMI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	742
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI YALPI HUDUDII MAHSULOT XAJMIGA ASOSII KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNING TA'SIRI	749
Sultanov Anvar Abdullaevich	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODII HOLATI.....	754
Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li	
DAVLAT XUSUSII SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODII STRATEGIYALAR	760
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT	764
Mamatkulova Shoir Djalolovna	
РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	769
Ахмедова Азиза Тохировна, Зайналов Ж.Р.	
ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....	774
Айматова Фарида Хуразовна	
XORIJIY MOLIYAVII RESURLAR VA ULARNING IQTISODII O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNI	778
Xomidova Kamola G'olib qizi	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	783
Xattabov Murodulla Batirovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	788
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOII MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjapova Latofat Sardorovna	
MILLII IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	



MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Madina Kamilovna

TDIU "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası dotsenti, i.f. n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston sanoat tarmoqlarida innovatsion rivojlanish, mehnat unumdorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish qiymat zanjirlarini chuqurlashtirish hamda "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan texnologik modernizatsiya masalalari tahlil qilingan. Maqolada 2021–2024-yillar sanoat statistik ma'lumotlari asosida sanoat tarmoqlaridagi dinamik o'zgarishlar, qo'shilgan qiymat ulushini oshirish imkoniyatlari, sanoat klasterlari samaradorligi va "Strategiya–2030"da belgilangan maqsadlar amaldagi islohotlar bilan muvofiq ravishda ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoat rivojlanishi, mehnat unumdorligi, qo'shilgan qiymat, sanoat klasterlari, yashil iqtisodiyot, tarmoq samaradorligi koeffitsiyenti, Strategiya–2030, prognozlash modeli.

Abstract. This article analyzes the issues of innovative development in Uzbekistan's industrial sectors, focusing on increasing labor productivity, optimizing production costs, deepening value-added production chains, and implementing technological modernization based on the principles of the green economy. Using statistical data for the period 2021–2024, the study examines dynamic changes in the industrial sector, identifies opportunities for expanding the share of value added, evaluates the effectiveness of industrial clusters, and analyzes the alignment of ongoing reforms with the objectives outlined in the Strategy–2030 framework.

Key words: industrial development; labor productivity; value added; industrial clusters; green economy; sectoral efficiency coefficient; Strategy–2030; forecasting model.

Аннотация. В данной статье проанализированы вопросы инновационного развития отраслей промышленности Узбекистана, повышения производительности труда, оптимизации издержек, углубления производственных цепочек добавленной стоимости, а также технологической модернизации на основе принципов «зеленой экономики». На основе статистических данных за 2021–2024 годы рассмотрены динамические изменения в промышленном секторе, выявлены возможности увеличения доли добавленной стоимости, оценена эффективность промышленных кластеров и проанализировано соответствие проводимых реформ целям, обозначенным в «Стратегии–2030».

Ключевые слова: промышленное развитие, производительность труда, добавленная стоимость, промышленные кластеры, зеленая экономика, коэффициент отраслевой эффективности, Стратегия–2030, модель прогнозирования.

KIRISH

O'zbekiston sanoati milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy tarmoqlardan biridir. Sanoat tarmog'ining rivojlanishi mamlakatning strategik maqsadlari – iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlash, eksport salohiyatini kengaytirish va qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish bilan uzviy bog'liqdir. Ya'ni, sanoat rivoji nafaqat ishlab chiqarish hajmlarining oshishi, balki texnologik modernizatsiya, kadrlar salohiyatining yuksalishi va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish madaniyatining takomillashuvini ham nazarda tutadi.

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar sanoat sohasini tarkibiy jihatdan yangilash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, resurs tejamlar yechimlardan foydalanish hamda xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da ham, "O'zbekiston–2030" strategik dasturida ham sanoat tarmoqlarida innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, qayta ishlash tarmoqlarini kengaytirish va sanoatni global qiymat zanjirlariga integratsiya qilish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

2023-yilda sanoatning YAIMdagi ulushi 28,7%ni tashkil etdi, 2030-yilga kelib esa ushbu ko'rsatkichni 35%ga yetkazish rejalashtirilgan. Bu o'sish, avvalo, mashinasozlik, kimyo, farmatsevtika, elektr asbob-uskunalar, qurilish materiallari va ayniqsa, eksport salohiyati yuqori bo'lgan to'qimachilik tarmoqlarida qo'shilgan qiymatni oshirish hisobiga ta'minlanishi lozim.



Shu boisdan ushbu maqolada sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish omillari, ishlab chiqarish samaradorligini takomillashtirish mexanizmlari, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni va tarmoqlar kesimida qiymat zanjiri shakllanishining amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat rivojlanishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar turli davrlarda iqtisodiy nazariya va amaliy siyosatning markazida bo'lgan. Klassik iqtisodchilar – A.Smit va D.Rikardo – ishlab chiqarish omillari, mehnat taqsimoti va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni birinchi bo'lib ilmiy asosda yoritgan. Keyinchalik Y.Shumpeter innovatsiyani iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta'kidlab, sanoatni yangilanish davriyligiga ko'ra dinamik tizim sifatida qaradi. Shumpeterga ko'ra, yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va bozorda raqobatni kuchaytirish sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatni yaratadi.

K.Frimen va T.Pavitt sanoat rivojida texnologik trayektoriyalar va innovatsion sikllarni o'rganib, korxonalarda bilimlarning shakllanishi va uzatilishi sanoat samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini asoslagan. M.Porter esa "klaster" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, sanoatni hududiy birlashmalar va kooperatsion tarmoqlar doirasida rivojlantirish raqobatbardoshlikni oshirishini ko'rsatgan.

MDH va xorij olimlari A.A.Frenkel, Yu.G.Odegeyev, O.S.Suxarev, A.V.Trachuk va boshqalar mehnat unumdorligi o'sishi, sanoat tarmoqlarida texnologik modernizatsiya va korxonaning ichki boshqaruv amaliyotlarini takomillashtirishning iqtisodiy effektlarini modellashtirish bilan shug'ullangan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar Q.X.Abduraxmonov, E.X.Maxmudov, A.Ortiqov, Sh.Xolmo'minov, D.A.Nasimov va boshqalar sanoat klasterlarini shakllantirish, mehnat resurslarini samarali taqsimlash va raqamli transformatsiyani amalga oshirish milliy sanoatning barqaror o'sishi uchun asosiy omil ekanligini o'z ilmiy ishlarida keng tadqiq etishgan.

O'zbekistonda sanoat iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda qator dissertatsiya ishlari muhim o'rin tutadi. Jumladan, A.Ortiqov (2020-yil, "Sanoat tarmoqlarida qiymat zanjirini chuqurlashtirish mexanizmlari", Iqtisodiyot fanlari bo'yicha PhD dissertatsiya avtoreferati) tomonidan sanoat tarmoqlarida qo'shilgan qiymatni shakllantirish mexanizmlari tahlil qilinib, qiymat zanjirini chuqurlashtirish sanoat raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanligi ta'kidlanadi. Shu bilan bir qatorda E.Maxmudov (2021-yil, "Sanoat klasterlari rivojlanishining iqtisodiy va tashkiliy asoslari", Iqtisodiyot fanlari bo'yicha DSc dissertatsiya avtoreferati) o'z tadqiqotida hududiy klaster modellari sanoat korxonalarining o'zaro bog'liq ishlashini ta'minlab, qo'shilgan qiymatni shakllantirish zanjirining barqarorligini kuchaytirish zarurligini tadqiq etgan. Boshqa iqtisodchi olim D.Nasirov (2022-yil, "Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv modellari takomillashtirish", Iqtisodiyot fanlari bo'yicha PhD dissertatsiya avtoreferati) tomonidan esa sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv modellari va raqamlashtirish jarayonlari tahlil qilinib, resurs tejamkorlik va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning amaliy mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, sanoat rivojining zamonaviy tendensiyalari texnologik yangilanish, kadrlar salohiyati va qiymat zanjirlarining chuqur integratsiyasi bilan bog'liq ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada quyidagi iqtisodiy-tajriba usullari qo'llanildi:

- Statistik dinamika tahlili – 2021–2024-yillar sanoat ishlab chiqarish o'sish ko'rsatkichlari;
- Qiyosiy tahlil – O'zbekiston, Qozog'iston, Turkiya va Janubiy Koreya sanoat unumdorligi;
- Tarmoq samaradorligi koeffitsiyenti (TSK) modeli:

$TSK = (Qo'shilgan\ qiymat / Ishlab\ chiqarish\ xarajatlari) \times 100;$

- 2030-yilga prognoz modeli – tendensiyalar ekstrapolyatsiyasi va ssenariy baholash.

Tadqiqot obyekti sifatida sanoat korxonalari, klasterlari va mehnat resurslari tizimi belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2021–2024-yillar davomida sanoat tarmoqlaridagi o'sish jarayonlari barqaror bo'lmagan holda, tarmoqlar kesimida turlicha dinamika kuzatildi. Xususan, qayta ishlash sanoati sanoatdagi umumiy o'sish drayveri sifatida shakllandi. Buning asosiy sabablari quyidagicha:

- 1) Xomashyo eksport amaliyotini qisqartirish va ichki qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish siyosati;
- 2) Investitsiya faolligining yuqori sur'atlarda saqlanishi (ayniqsa, xususiy va joydagi sarmoyalar);
- 3) Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish dasturlarining amalga oshirilishi (1-jadval).

1-jadval. 2021–2023-yililarda sanoat ishlab chiqarish o'sishi (%)¹

Yil	YAIMda sanoat ulushi	Sanoat o'sishi	Qayta ishlash sanoati	Eksport ulushi
2021	27.5%	9.4	12.1	34%
2022	28.1%	5.2	6.7	37%
2023	28.7%	6.0	7.9	41%
2024	29.4%	5.8	8.3	43%

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi tarmoqlar bo'yicha nomutanosib xarakterga ega:

- energetika va kimyo sanoatida o'sish sur'atlari barqaror, ammo energiya sarfi yuqori;
- mashinasozlikda lokalizatsiya darajasi oshib borayotgan bo'lsa-da, texnologiya importiga bog'liqlik saqlanmoqda;
- farmatsevtika sanoatida qo'shilgan qiymat ulushi oshmoqda, ammo laboratoriya-innovatsion infratuzilmani kengaytirish talab etiladi (2-jadval).

2-jadval. Sanoat rivojlanishining hududiy miqyosdagi dinamikasi²

Viloyat / Shahar	Sanoat ulushi (2023)	Asosiy rivojlanish yo'nalishi
Toshkent shahri	20.3%	Elektronika, mashinasozlik, farmatsevtika
Navoiy viloyati	14.7%	Kimyo, metallurgiya, qurilish materiallari
Andijon viloyati	10.9%	Avtomobilsozlik, to'qimachilik
Farg'ona viloyati	9.8%	Neft-gaz qayta ishlash, polimer materiallar
Samarqand viloyati	8.4%	Oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati

Ushbu dinamika sanoat tarmog'ining hududiy diversifikatsiya qilinganini ko'rsatadi. Mehnat unumdorligi sanoat rivojlanishining asosiy indikatorlaridan biri bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Uning o'sish sur'atlarini aniqlashda quyidagi umumiy modeldan foydalaniladi:

$$W = Q / L$$

Bu yerda: W – mehnat unumdorligi; Q – ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (ya'ni qo'shilgan qiymat bilan ifodalangan); L – mehnat resurslari (bandlar soni).

Biroq sanoatda mehnat unumdorligiga ta'sir bir vaqtda bir nechta omillar ta'sirida shakllanadi. Shunga ko'ra, mehnat unumdorligining kompleks modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$W = f(T, K, M)$$

Bu yerda: T – texnologik yangilanish darajasi; K – kadrlar malakasi va kompetensiyalarining o'sishi; M – ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqaruv (menejment) tizimining samaradorligi.

Amaliyotda ushbu modelni qiymat ko'rinishida baholash uchun mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi kompleks koeffitsiyent qo'llaniladi:

$$W_c = (T^\alpha \times K^\beta \times M^\gamma)$$

Akademik tadqiqotlarda koeffitsiyentlar odatda quyidagicha aniqlanadi:

α (texnologiya ta'siri koeffitsiyenti) $\approx 0.45\text{--}0.55$;

β (kadrlar malakasi ta'siri koeffitsiyenti) $\approx 0.25\text{--}0.35$;

γ (menejment va tashkilotchilik ta'siri koeffitsiyenti) $\approx 0.15\text{--}0.25$.

2023-yil uchun O'zbekiston sanoatidagi hisoblangan o'rtacha qiymat: $W_c = (0.48 \times 0.31 \times 0.21) = 0.0313$, ya'ni mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarning birgalikdagi hissasi 3.13% ichki o'sish salohiyatini ko'rsatadi.

Bu raqam amaldagi o'sish sur'atlari bilan solishtirilganda, sanoatda mehnat unumdorligini oshirish uchun hali katta imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

ILO hisobotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda mehnat unumdorligi 9 800\$ni tashkil etdi. Qiyosiy tahlilda quyidagicha solishtirishni ko'rishimiz mumkin:

- Qozog'iston – 18 400\$;
- Turkiya – 27 600\$;
- Koreya – 44 100\$.

1 Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi, 2024.

2 Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi, 2024.



Bu sanoatda modernizatsiya va kadrlar tayyorlashning ustuvorligini tasdiqlaydi. Yashil iqtisodiyot sanoatda resurs tejamkorlik, energiya samaradorligi va atrof-muhitga minimal ta'sirni ta'minlashga qaratilgan. O'zbekistonda "yashil sanoat" konsepsiyasi quyidagi strategik maqsadlarga ega:

1. SO₂ chiqindilarini qisqartirish;
2. qayta tiklanuvchi energiya manbalarini sanoatda qo'llash ulushini oshirish;
3. energiya va xomashyo sarfini optimallashtirish;
4. chiqindilarni qayta ishlash va sikl mahsulot aylanmasini shakllantirish.

Yashil sanoatda samaradorlik modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$G = (E_s + R_s + C_r) / 3$$

Bu yerda: G – yashil samaradorlik indeksi; E_s – energiya tejamkorligi indeksi; R_s – resurs tejamkorligi indeksi; C_r – chiqindilarni qayta ishlash samaradorligi indeksi.

2023-yilda O'zbekiston sanoati uchun indikatorlar:

$$E_s = 0.24;$$

$$R_s = 0.31;$$

$$C_r = 0.19.$$

Shunga ko'ra:

$$G = (0.24 + 0.31 + 0.19) / 3 = 0.246 \text{ (24.6\%).}$$

Bu sanoatning yashil transformatsiya darajasi hali o'sishi kerakligini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval. Xalqaro qiyosiy tahlil³

Mamlakat	Yashil sanoat indeksi (G)
Janubiy Koreya	0.63
Turkiya	0.41
Qozog'iston	0.33
O'zbekiston	0.246

O'zbekistonda 2030-yilgacha yashil sanoat indeksi 0.55 gacha oshirilishi rejalashtirilgan.

Bu maqsadga erishishning asosiy omillari:

- energiya samarador uskunalarini modernizatsiya qilish;
- sanoat korxonalarida ISO 14001 "Ekologik menejment" standartlarini joriy etish;
- tiklanuvchi energiya resurslariga davlat subsidiyalari;
- chuqur qayta ishlashni kengaytirish.

"Yashil sanoat" konsepsiyasi quyidagilarni nazarda tutadi:

- CO₂ chiqindilarini kamaytirish;
- energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish;
- qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish;
- chiqindilarni qayta ishlash.

2023-yilda O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiyada ishlab chiqarish ulushi 12,4% ni tashkil etdi.

2030-yilgacha bu ko'rsatkich 30% ga yetkaziladi.

Iste'mol va investitsiya dinamikasiga asoslangan prognoz:

Prognoz formulasi:

$$\text{Sanoat o'sishi} = (\text{Investitsiya indeksi})^{\frac{1}{n}}$$

To'qimachilik tarmog'i O'zbekistonda yuqori qo'shilgan qiymat yarata oladigan strategik sanoat yo'nalishidir.

2023-yilda tarmoq sanoat eksportida 41% ulushga ega bo'ldi. Qiymat zanjiri quyidagi bosqichlardan iborat: 1) xom paxtani yetishtirish; 2) yigirish va tola tayyorlash; 3) gazlama to'qish va bo'yash; 4) tayyor kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish; 5) eksport, marketing va brendlash.

Tarmoq samaradorligi koeffitsiyenti (TSK): $TSK = (\text{Qo'shilgan qiymat} / \text{Ishlab chiqarish xarajatlari}) \times 100$.

2023-yil uchun: $TSK = 1.26 \times 100 = 126\%$. Bu to'qimachilik sanoati yuqori qo'shilgan qiymat potensialiga ega ekanini tasdiqlaydi.

2030-yilgacha O'zbekiston sanoatida energiya samaradorligi va resurs tejash asosiy ustuvor yo'nalish bo'ladi.

$$\text{Yashil o'sish modeli: } I_g = I \times (1 + E \times K)$$

Bu yerda:

- I_g — yashil modernizatsiyadan keyingi o'sish sur'ati;
- I — amaldagi sanoat o'sish sur'ati (6%);
- E — energiya samaradorligi koeffitsiyenti (0.18 → 0.35);

3 Muallif ishlanmasi



- K — texnologiya yangilanishi koeffitsiyenti (0.12 → 0.27).

$$I_g = 6\% \times (1 + 0.35 \times 0.27) \approx 7.5\%.$$

To'qimachilik sanoati bo'yicha 2030-yilga prognoz qilganimizda, bu tarmoqda qo'shilgan qiymat ulushining 34% dan 55–60% gacha oshishi, eksport hajmi 3.1 mlrd dollardan 8–9 mlrd gacha oshishi, 1 tonna mahsulotga energiya sarfi 22% ga kamayishiga erishiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish, qo'shilgan qiymat ulushini kengaytirish va yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish amaliy menejment qarorlariga bog'liq. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, texnologiyani yangilash, kadrlar malakasini oshirish va boshqaruv modellarini optimallashtirish bir-biriga bog'liq jarayonlardir va ularni kompleks yondashuvsiz amalga oshirish samara bermaydi.

Bizning fikrimizcha, quyida keltirilgan takliflar sanoat korxonalarini samarali boshqarish uchun muhim hisoblanadi:

1. Texnologik modernizatsiyani rejalashtirishda tadrijiy modelni qo'llash. Uskunani bir vaqtda to'liq yangilash emas, balki ishlab chiqarish liniyalari bo'yicha bosqichma-bosqich optimizatsiya qilish samaraliroq natija beradi. Energiya samarador uskunalarini tanlashda esa faqat boshlang'ich investitsiya emas, balki uzoq muddatli ekspluatatsiya xarajatlari asosiy mezon sifatida belgilanishi lozim.

2. Kadrlar salohiyatini oshirishda dual modelni joriy etish. Korxona qoshida amaliy o'quv markazlarini tashkil etish orqali nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish zarur. Shu bilan birga, ishchilarning malaka razryadini attestatsiya asosida muntazam oshirib borish tizimli yo'lga qo'yilishi kerak.

3. Menejment samaradorligini oshirish. Lean management, Kaizen va TPM amaliyotlarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarida isrofgarchilikni kamaytirish mumkin. Korxonada ichki audit hamda KPI tizimini ishlab chiqish boshqaruv qarorlarining aniqligini oshiradi.

4. Qiymat zanjirini to'liq shakllantirish. Xomashyo, yarimtayyor mahsulot va tayyor mahsulot bosqichlarini yagona boshqaruv tizimida integratsiyalash zarur. Shuningdek, eksport yo'nalishlarini qiymat zanjirining uzviy davomi sifatida shakllantirish raqobatbardoshlikni oshiradi.

5. Eksport strategiyasini qayta ko'rib chiqish. Mahsulotlarni brendlash va bozorda pozitsiyalash bo'yicha marketing bo'limlari faoliyatini kuchaytirish talab etiladi. Logistika va tashuv xarajatlari qisqartirish maqsadida mintaqaviy xablardan foydalanish samarali hisoblanadi.

6. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini korxona siyosatiga kiritish. Elektr sarfini 15–25% ga kamaytirishni nazarda tutuvchi yillik energiya tejash dasturini qabul qilish maqsadga muvofiq. Chiqindilarni qayta ishlash va qayta foydalanish darajasini 30–50% gacha oshirish ekologik barqarorlikni ta'minlaydi.

7. Ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish. Tannarx xarajatlarini real-time monitoring qilish orqali operativ nazoratni kuchaytirish mumkin. Xarajatlarning tarkibiy tuzilishini har oy tahlil qilib, optimizatsiya choralarini amalga oshirish zarur.

8. Innovatsion tashabbuslar muhitini shakllantirish. Xodimlar uchun "ijodiy takliflar platformasi"ni joriy etish orqali ichki innovatsiyalarni rag'batlantirish mumkin. Eng samarali takliflar uchun moddiy va nomoddiy rag'batlantirish tizimini kuchaytirish zarur.

9. Korxonada raqamli transformatsiyani joriy etish. ERP, MES va CRM kabi korxona boshqaruv axborot tizimlarini bosqichma-bosqich integratsiya qilish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Ishlab chiqarish jarayonlarining raqamli pasportini yuritish ma'lumotlar asosida boshqaruvni ta'minlaydi.

10. Sanoat klasterlari bilan kooperatsiyani kuchaytirish. Mahalliy yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzish ta'minot barqarorligini oshiradi. Innovatsion markazlar bilan hamkorlikda tajriba-konstruktorlik loyihalarini amalga oshirish texnologik rivojlanishni jadallashtiradi.

11. Strategik rejalashtirish tizimini takomillashtirish. O'rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini aniq ko'rsatkichlar asosida shakllantirish zarur. Har bir strategik maqsad uchun o'lchab bo'ladigan indikatorlar belgilanishi boshqaruv samaradorligini oshiradi.

12. Risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish. Ishlab chiqarish, moliyaviy va bozor risklarini muntazam baholab borish tizimi yo'lga qo'yilishi kerak. Diversifikatsiya va sug'urta instrumentlaridan foydalanish korxona barqarorligini ta'minlaydi.

Bu takliflarning amaliy ahamiyati shundaki, ular sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish va qo'shilgan qiymat zanjirini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov, E. X. (2021). Sanoat klasterlari rivojlanishining iqtisodiy va tashkiliy asoslari (DSc dissertation abstract). Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
2. Abdurakhmanov, Q. X. (2019). Mehnat iqtisodiyoti. Toshkent: Fan nashriyoti.



3. International Labour Organization. (2023). ILOSTAT: Labor productivity database. <https://ilostat.ilo.org>
4. Porter, M. E. (1990). The competitive advantage of nations. New York, NY: Free Press.
5. UNIDO. (2023). Industrial Development Report 2023: Industrial policy for sustainable development. Vienna: United Nations Industrial Development Organization.
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). Sanoat rivojlanishi bo'yicha yillik statistik ma'lumotlar. <https://stat.uz>
7. World Bank. (2023). Green Transition in Central Asia: Country diagnostic for Uzbekistan. Washington, DC: World Bank.
8. Export.gov. (2023). Uzbekistan Textile and Apparel Sector Overview. U.S. International Trade Administration.
9. Nasirov, D. A. (2022). Sanoat klasterlari rivojlanishida innovatsion boshqaruvning o'rni. Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali, 3(4), 112–124.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
